



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

BAXMAL TUMANI HUDUDINING TABIIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Jumanov Laziz Berdimurodovich

magistr

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Baxmal tumanining geografik o‘rni, maydoni, chegaralari, geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, suvlari hamda o‘simlik va hayvonot dunyosi yoritilgan. Shuningdek, hududning tabiiy xususiyatlari zamonaviy GIS texnologiyalari yordamida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Baxmal tumani, Chumqor, Morguzar, Sangzor, tog‘, tog‘oldi, adir, bo‘z tuproq.

PHISICAL GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE TERRITORY OF BAKHMAL DISTRICT

Jumanov Laziz

Abstract: This article describes the geographical location, area, boundaries, geological structure, relief, climate, water, flora and fauna of Bakhmal tuman. The phisical features of the area were also analyzed using modern GIS technologies.

Keywords: Bakhmal tuman, Chumkor, Morguzar, Sangzor, mountain, foothills, adir, boz soil.

Baxmal tumani ilk bor 1943-yil 8-mayda tashkil etilgan. 1957-yil 12-oktabrda G‘allaorol tumani bilan birlashtirilgan. 1971-yil 31-avgustda G‘allaorol tumani tarkibidan chiqarilib yana alohida tuman bo‘ldi. Baxmal tumani tabiiy geografik jihatdan Jizzax viloyatidagi eng janubiy tuman bo‘lib, janubda Turkiston tog‘ tizmasi orqali Tojikiston Respublikasi bilan (81,34 km), g‘arbda Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumani (30,86 km), shimolda G‘allaorol (24,79 km) va Sharof Rashidov tumanlari (31,56 km), sharqda va shimoli-sharqda Morguzar tizmasi bo‘ylab Zomin tumani (75,77 km) bilan chegaradoshdir.

Tuman chegarasining umumiy uzunligi 244,32 km bo‘lib, shundan 160,27 km Chumqor va Morguzar suvayirg‘ichlariga to‘g‘ri kelsa, qolgan 84,09 km esa adir va baland tekisliklar orqali o‘tkaziladi.

Baxmal tumani hududi, asosan, Turkiston tog‘ tizmasining davomi hisoblangan Chumqor va Morguzar tog‘lari orasida, Sangzor vodiysida joylashgan o‘ziga xos hududdir.

O‘lkaning eng shimoliy nuqtasi 39°54’ shimoliy kenglikda, Baxmal, G‘allaorol va Sharof Rashidov tumanlari chegaralari tutashgan joyiga to‘g‘ri kelsa, eng janubiy

nuqtasi esa Chumqor tog' suvayirg'ichidan, ya'ni 39°33' janubiy kenglikdan o'tadi, shimoliy va janubiy chekka nuqtalari orasidagi masofa esa 38,9 km ni tashkil etadi.

Tumanning sharqiy va g'arbiy chekka nuqtalari deyarli bir kenglikda yotadi. Uning sharqiy chekka nuqtasi, hududning shimoli-sharqida, Morguzar tog'ining Turkiston tizmasidan ajragan qismida, ya'ni 68°20' sharqiy uzunlikda joylashgan bo'lsa, uning qarshi tomonida o'rin olgan eng chekka g'arbiy nuqtasi esa Zarafshon vodiysiga yaqin soyliklardan, 67°22' sharqiy uzunlikdan o'tib, chekka nuqtalari orasidagi masofa 83,6 km ni tashkil etadi. Baxmal tumani umumiy yer maydoni 1864,37 kv km bo'lib, kattaligi jihatdan viloyatda faqat Forish, Zomin, G'allaorol tumanlaridan keyingi 4-o'rinda turadi [3].

Geologik tuzilishi. Baxmal tumani Sangzor vodiysida joylashganligi hamda ikki tomondan Turkiston tog' tizmasining davomi hisoblangan Chumqor va Morguzar tog'lari o'rab turganligi sababli geologik tuzilishi jihatidan juda murakkab o'lka. Buning murakkabligi shundaki, hududning geologik tuzilishi kichik masofada turli-tuman bo'lib, har xil geologik davrlarga mansub tog' jinslaridan tarkib topgan. Tumanning Chumqor tog'i shimoliy yonbag'ridagi qismi geosinklinal yoriqlarga to'g'ri kelib, u Turkiston tizmasining boshqa qismlariga nisbatan harakatchanligi bilan ajralib turadi. Bu yerda paleozoy erasidan boshlab to'rtlamchi davrgacha hosil bo'lgan cho'kindi, magmatik va metamorfik tog' jinslari uchratishimiz mumkin.

Paleozoy tog' jinslari burmalangan va juda ko'p yoriqlar bilan parchalangan. Tumanning o'rta, ya'ni Sangzor daryosi bo'ylab joylashgan qismlarida bu davrga mansub tog' jinslar katta chuqurliklarda yotadi va ustini mezo-kaynozoy davrining qalin cho'kindi jinslari qoplagan. Hududdagi Chumqor va Morguzar tog'larining ko'p qismida metamorfiklashgan tog' jinslari uchraydi. Tog' jinslarining yoshini aniqlash qiyin bo'lganligi uchun hududlarning geologik xaritasi tuzilayotganda shartli ravishda ular paleozoy sistemasiga kiritilgan. Paleozoy yotqiziqlari, asosan, Chumqor va Morguzar tog'larini egallagan.

Tumanda mezozoy erasiga mansub yotqiziqlar deyarli uchramaydi.

Kaynozoy erasining paleogen, neogen va to'rtlamchi davr yotqiziqlari Baxmal hududining, asosan, Sangzor vodiysining quyi qismida va tog' oldi tekisliklarda tarqalgan.

Paleogen davri yotqiziqlari hududning sharqiy qismidagina uchraydi. Oligotsenga mansub tog' jinslari hududning sharqiy qismidagina bo'lib, asosan, gillardan, qumtoshlardan, alevrolitlardan iborat.

Neogen davri yotqiziqlari paleogen davri yotqiziqlariga nisbatan kengroq tarqalgan. Ular, asosan, hududning sharqiy qismlarida tog' oldi qirlarida uchraydi. Yotqiziqlaridan, asosan, gravelitlar, konglomeratlar, alevrolitlar, gillar, mergellar ko'proq tarqalgan.

To'rtlamchi davr yotqiziqlarini Sangzor vodiysining deyarli hamma joyida uchratishimiz mumkin. Ular har xil qalinlikdagi elyuvial, delyuvial, prolyuvial, allyuvial yotqiziklar, o'zlashtirgan maydonlarda esa agroirrigatsion qatlamlardan iborat.

Allyuvial yotqiziqlar Sangzor daryo vodiysining quyi qismida keng tarqalgan bo'lib, konlomeratlar, shag'al va qumlardan iborat. Ular ustini uncha qalin bo'lmagan lyossimon gilli tog' jinslari qoplagan.

Prolyuvial yotqiziqlar, asosan, Sangzor daryosiga quyiluvchi vaqtincha oqar suvli soylar hamda kichik irmoqlar olib kelgan xarsang toshlar, shag'allar, konglomeratlardan iborat bo'lib, tog' etaklarida keng tarqalgan.

Dellyuvial yotqiziqlar, asosan, chaqiq jinslardan, lyossimon gillardan iborat bo'lib, Chumqor va Morguzar tog' yonbag'irlarida va etaklarida, Sangzor vodiysida ko'p uchraydi.

Relyefi. Tuman relyefi ham o'ziga xosdir. Tumanning katta qismini Turkiston tog' tizmasi, tog' yonbag'irlari va tog' oldi qirlari egallaydi. Turkiston tizmasi Hisor-Oloy tog' tizimiga kirib, Sirdaryo va Zarafshon daryolari oralig'idagi suv ayirg'ich hisoblanadi. Sharqdan g'arbga Mastchoh tog' tugunidan Zarafshon daryosining o'rta oqimigacha 350 km gacha cho'zilgan, eni 60 km dan ziyod. Uning geologik o'tmishi paleozoy erasiga borib taqaladi. U gersin tog' burmalanishida ko'tarilib keyinchalik emirilgan va uchlamchi davrda qayta ko'tarilib, hozirgi qiyofaga kelgan. Uning davomi hisoblangan Morguzar tog'i Chumqor tog'idan shimoli-g'arbga yo'nalgan bo'lib, o'rtacha balandligi 1500-2000 metr, eng baland cho'qqisi esa 2621 metrga etadi.

Morguzar tog'ining tuman hududiga tegishli janubi-g'arbiy yonbag'ri Sangzor daryo vodiysiga tik tushgan. Gersin burmalanishida hosil bo'lgan. Tog'ning relyef xususiyati ularni tashkil qilgan jinslarning litologik tarkibiga qarab turlicha shakllarga ega. Bu yonbag'ir kuchli parchalangan qoyali nayzasimon cho'qqilar ko'pincha chuqur daralar, platosimon yuzalar va keng tog' bellari bilan almashinib keladi.

Chumqor tog'i Turkiston tizmasining g'arbida joylashgan bo'lib, sharqdan g'arbga tomon cho'zilgan. U Sangzor va Zarafshon daryolari orasida suvayirg'ich hisoblanib, shimoliy qismigina tuman hududiga qaraydi. O'lkaga tegishli bo'lgan eng baland joyi Bozorxonim cho'qqisi bo'lib, balandligi 3405 m ga teng. Chumqor tog'ining shimoliy etagida O'smat shaharchasi joylashgan. Uning dengiz sathidan balandligi 1000-1200 metrni tashkil qiladi.

Morguzar bilan Chumqor tog'lari orasidagi tektonik botiqda Sangzor vodiysi hosil bo'lgan. Bu vodiydin dastlab sharqdan g'arbga va shimoli-g'arbga Sangzor daryosi oqadi. Vodiyning kengligi g'arbida 17 km ni, sharqida esa torayib 5-6 km ni, mutloq balandligi g'arbida 500-600 m ni, sharqda 1700-2300 m ni tashkil etadi. Sangzor vodiysining tog' yonbag'irlarida o'rta pleytotsenning to'lqinsimon va tepali allyuvial-prolyuvial tekisliklardan iborat.

Sangzor daryo havzasidagi golotsen yoshidagi tekisliklarda daryo, poyma va terrasalari va va konuslardan iborat.

Iqlimi va ichki suvlari. Tuman iqlimining vujudga kelishida uning geografik o'rni va u bilan bog'liq quyosh radiatsiyasi, havo harakatlari, shamollar, relyef va yer yuzasining holati ta'sir etadi.

Baxmal hududining janubiy qismi tog'lar bilan o'ralganligi tufayli iliq tropik havo massalarining kirib kelishiga to'siq bo'ladi. Aksincha, shimoli-g'arbiy qismi ochiq bo'lganligidan, shimoldan, shimoli-g'arbdan esuvchi sovuq havo massalari qishda ichkari tomon asta-sekin kirib keladi. Natijada bu havo massalari tog' oraliq botiqlarida, vodiylarida, tekisliklarda uzoq muddat turib qoladi.

Baxmal hududining iqlimi kontinental iqlim bo'lib, yozi quruq va issiq, qishi u qadar sovuq bo'lmaydi. Havoning o'rtacha ko'p yillik harorati 12,8°C ni tashkil etadi. Yanvarning o'rtacha harorati -3,7°C ga teng bo'lib, mutloq minimal harorat -14,8°C gacha pasayadi [1].

Eng issiq oy iyul oyi bo'lib o'rtacha oylik harorat 27°C, tog'li qismida 15°C. Mutloq maksimal harorat 42°C ga teng. Tuman adir va tog'lardan iborat bo'lganligi sababli, yoz oylarida boshqa hududlarga nisbatan ancha salqin bo'ladi. Havoning o'rtacha yillik nisbiy namligi 46% ga teng. Hududning o'rtacha yillik yog'in miqdori 300-700 mm ni tashkil etsa, tog'larning g'arbiy havo massalariga qaragan yonbag'irlarida 600-700 mm, uning teskari qismlarida va berk botiq hududlarida 250-354 mm ga etadi. O'lka hududida yog'inning ko'p qismi bahor (41-48%) va qish oylariga (34-43%) va kam qismi yoz oylariga (2-5%) to'g'ri keladi.

Sovuqsiz kunlarning davomiyligi 188 kun davom etadi. Qor qoplami hosil bo'lish vaqti 25-noyabrda. Qor qoplaminin erishi 16-martga to'g'ri keladi [1].

Tumanda sharqiy, janubi-sharqiy va shimoli-g'arbiy yo'nalishdagi tog'-vodiy shamollari hukmronlik qiladi.

Tuproqlari va o'simlik dunyosi. Baxmal tumani Chumqor va Morguzar tizma tog'lari yonbag'irlarida va Sangzor vodiysida joylashgan. Vodiyning quyi qismidan yuqori qismiga borgan sari iqlimiy va geomorfologik sharoit bilan bog'liq holda tuproq qoplami va o'simlik dunyosi o'zgarib boradi.

Balandlik mintaqalarga muvofiq bu erda tipik va to'q tusli bo'z, jigarrang va och qo'ng'ir tuproqlar ketma-ket o'rin almashadi.

Sug'orma dehqonchilik zonasi Tuyatortar kanali vodiysida va Zarafshon daryosining qayir usti terrasalarida joylashgan. Tuproq qoplami, asosan, sug'orma dehqonchilikda foydalaniladigan tipik bo'z tuproqlardan iborat.

Tipik bo'z tuproqlar dengiz sathidan 700-800 m balandlikdagi tog' etaklaridagi nishabliklarni egallaydi. Bu tuproqlarning asosiy maydoni tabiiy geografik sharoiti va geomorfologik tuzilishi ko'proq lalmi dehqonchilikga qulay va tumanning asosiy lalmikor yerlari ham shu yerlarga to'g'ri keladi.

Mexanik tarkibiga ko'ra gilli va qumoq lyosli qatlamlar tog' yonbag'irlarida tipik bo'z tuproqlar tarqalgan. Bu tuproqlarning tog' yonbag'irlarining tik qismlarida tuproq eroziyasi kuchli shuning uchun ularning unumdorligini tiklash uchun qoramol boqishni, hech bo'lmaganda alohida uchastkalarda ma'lum bir davrlarda taqiqlash hamda ser ildizli o't ekinlarini ekishni tavsiya etiladi.

To'q tusli bo'z tuproqlar dengiz sathidan 800-1000 m balandlikdagi tog' oldi va past tog'li o'lkalarda tarqalgan. Ularning asosiy maydoni skletli va yemirilgan skletli tuproqlardan iborat. Lalmi yerlarda ishlov berishga yaroqli alohida tarqoq uchastkalar foydalaniladi.

Jigarrang kam korbanatli tuproqlar dengiz sathidan 1000-1200 m balandlikda, o'rtacha balandlikda tog'larning quyi qismida tarqalgan.

Mexanik tarkibiga ko'ra lyossimon va skletli qumoq qatlamlar qumoqlardan gilli qatlamlargacha o'zgaradi. Bu tuproq hududining ham asosiy qismi eroziya jarayonlariga uchragan.

Jigarrang tipik tuproqlar balandligi 1200-1800 m bo'lgan o'rtacha balandlikdagi tog'larning yuqori qismidagi archazor o'rmonlar tagida joylashgan bo'lib, bu yerda yog'inlar miqdori pastki mintaqadagidan sezilarli oshadi. Bu bilan bog'liq holda jigarrang tipik tuproqlar 40-60 sm gacha bo'lgan chuqurlik qismi korbanatlardan yuvilgan. Mexanik tarkibiga ko'ra, gilli va qumoqli tuproqlar tipiga kiradi.

Baland tog' och qo'ng'ir o'tloq-dasht tuproqlari dengiz sathidan 1800-2000 m bo'lgan baland tog' mintaqasida kichik maydonlarni egallaydi. Barcha joylarda skletlili va yuvilganligi bilan xarakterlanadi.

Yog'inlarning ko'pligi noyob yer bag'irlab o'sadigan archa turlari bilan xilma-xil o'tloq-dasht o'simliklari rivojlanishiga imkon beradi.

Ushbu hudud yozgi yaylov sifatida foydalaniladi. Yuqorida aytib o'tilgan tuproq tiplaridan tashqari rayon hududida qishloq xo'jaligida foydalanmaydigan maydonlar ajratilgan. Unga soylarning qumli-shag'alli o'zanlari va hakoza kiritilgan.

Xo'jalikda foydalanishning xilma-xilligi, shuningdek, balandlik mintaqalarining o'zgarishi bilan bog'liq rayon hududi o'simlik qoplami katta tafovutga ega [2].

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar bilan band sug'orma zona yovvoyi o'simliklarga boy. Ular orasida asosiy turlari qiyoq, g'umoy, olabuta (sho'ra), ituzum, yantoq hisoblanadi.

Lalmi-yaylov zonada 700-800 m balandlikdagi tog' oldilarida efemerlar va efemeroid o'simlik qoplami mavjud. Ular orasida eng keng tarqalgani cho'l qiyoqi, qo'ng'irbosh, qo'ziquloq, prangos, iris hisoblanadi. Ko'p yillik o'tlardan kuzipiya, shuvoq o'sadi.

Tog' oldining asosiy hududi lalmi yerlarda donli ekinlarda foydalaniladi. Yanada tikroq yonbag'irlar skletli tuproqlarda qoramol boqishda foydalaniladi.

Dengiz sathidan 800-1000 m balandlikdagi past tog'larda efemer, efemeroid qoplam saqlangan holda bahorda ko'p yillik o'tlar tarkibi o'zgaradi va boyib boradi. Ulardan eng keng tarqalgani poramis va flomus hisoblanadi.

Ortacha baland tog'larning quyi qismida 1000-1200 m balandlikda o'simlik qoplamida butalar bilan birga bo'tako'z, kovrak, qo'ziquloq keng tarqalgan.

1200-1800 m balandlikdagi o'rta tog'larning yuqori qismlarida o'simlik turlari orasida yorongul, g'umay, archa daraxtlari tagida o'rmon pireyi keng tarqalgan.

Baland tog'larning o'simlik qoplami yer bag'irlab o'suvchi archaning yagona turlari bo'lgan tog'lik kserofitlariga ega o'tloq va dasht o'simliklaridan iborat. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Baxmal tumani rang-barang tabiiy resurslarga boy tumanlaridan ekanligini inobatga olgan holda, bu resurslardan yanada unumli foydalanish uchun majmualiy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alibekov L.A., Nishonov S.A. Природные условия и ресурсы Джизакской области. Tashkent, "Uzbekistan", 1978.
2. G'ulomov P.N. Geografiya va tabiatdan foydalanish. –T.: "O'qituvchi", 1985.
3. Viloyat, tuman statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2020-2021.